

## TEXNIKA FANLARINI O'QITISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.

*Anorboyzoda Feruza Subxonqul qizi*  
*"O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasasi assistenti,*  
*Abdug'afforov N.B., Qo'ziyeva R.B. - Jizzax politexnika instituti*

**Annotasiya:** *Ushbu maqola o'qitishda tarbiyaviy masalalarni muvaffaqiyatli hal etish shaxs shakllanish jarayonining psixologik qonunyatlarini, bolalarning yosh xususiyatlari va psixologik rivojlanishi individual, iroda va his-tuyg'u sifatlarini, bilim faoliyati va aqliy rivojlanish xususiyatlarini bilishni talab etishi va texnika fanlarini o'qitishning psixologik xususiyatlari haqida fikr bildirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *texnika, psixologik xususiyatlar, qonunyatlar, individual, shaxs*


O'qitish – pedagogik jarayon bo'lib, o'quvchilar o'qituvchi rahbarligida fan asoslaridan sistemalashtirilgan bilimlarni amalda qo'llanishi bo'yicha mahorat va malakalarni oladilar. O'qitish – ikki tomonlama jarayon bo'lib, u o'zida o'qituvchining faoliyatini (o'qitishni) va o'quvchilar faoliyatlarini (o'rganishni) mujassamlashtiradi. O'qitishning natijasi bo'lib, umumiy ta'lim olish, o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, ularni hayotga tayyorlash hisoblanadi.

O'qituvchiga o'quv jarayonini to'g'ri, ilmiy tashkil etish uchun chuqur bilimlar zarur bo'lib qolmay, balki o'qitish jarayoni va bilimlarni o'zlashtirishning umumiy psixologik qonunyatlarini, malaka va ko'nikmalarini shakllantirishni, fikrlashni o'stirishni ham bilishi zarur. O'qitishda tarbiyaviy masalalarni muvaffaqiyatli hal etish shaxs shakllanish jarayonining psixologik qonunyatlarini, bolalarning yosh xususiyatlari va psixologik rivojlanishi individual, iroda va his-tuyg'u sifatlarini, bilim faoliyati va aqliy rivojlanish xususiyatlarini bilishni talab etadi.

O'qitish jarayonini tashkil etuvchi o'qituvchi shaxs psixik rivojlanishining zamonaviy konsepsiyasini bilishi muhim ahamiyatga ega. Psixologiya shaxsning psixologik xususiyati muhit, o'qitish va tarbiya ta'sirining mahsulotidan iborat, deb hisoblaydi. Ular butunlay tashqaridan onga kiritiladi, muhit o'qitish va tarbiya ta'sirida "Ontogenezda ularning shakllanishi sodir bo'ladi"

Iste'dod va qobiliyat, temperament va xotiraning o'ziga xos xususiyati, xarakterning o'ziga xosliklari kabi nerv, irsiyat va muhitning ishtiroki tan olinadi. Psixologiya insonning psixologik xususiyatlari ko'p jihatdan hayot vaqtida shakllanishida va rivojlanishida boshqaruvchi bo'lsa, hal qiluvchi rolni insonning ijtimoiy tajribasi, uning hayoti va faoliyatining sharoitlari, o'qitish va tarbiya o'ynaydi. Psixik rivojlanishida maxsus rolni "jamiyat talablariga javob beradigan, shaxsning ma'lum sifatlarini shakllantirish maqsadida katta avlodning kichik avlodga ongli maqsad sari yo'naltirilgan ta'sir jarayoni" sifatidagi o'qitish va tarbiya rolini o'ynaydi. Psixologlar inson aktiv mavjudot sifatida o'zining xususiy shaxsiyatini o'zi ongli ravishda o'zgartira oladi, ya'ni o'zini-o'zi tarbiyalash bilan shug'ullana oladi, degan holatni tan olishga asoslanadi. Ammo o'zini-o'zi tarbiyalash jarayoni atrof-muhitdan ajralgan holda olib borilmaydi [1]. O'zini-o'zi tarbiyalash atrof-muhit bilan aktiv o'zaro ta'sir jarayonida bo'ladi.

Psixik rivojlanishning muhim shart-sharoiti insonning tabiiy xususiyatlari hisoblanadi. Qobiliyatlar rivojlanishining tabiiy shart-sharoiti ayrim anatomo-fiziologik xususiyatlarning mavjudligidir. Qobiliyatlar inson hayoti va faoliyati, o'qishi va tarbiyasining sharoitlari ta'sirida shakllanadi va rivojlanadi. Ammo bu bir xil sharoitlarda hamma insonlarda intellektual qobiliyatlar bir xilda bo'ladi, degan ma'noni bildirmaydi. Psixik rivojlanish yosh



bolaning biologik yetilishiga, ayniqsa, miyaning rivojlanishiga bog'liqligi aniqlangan. Bu faktni ta'lim-tarbiya ishlarida hisobga olish zarur.

Rus psixologi L.S. Vigotskiy yosh bolaning psixik rivojlanishida ta'lim va tarbiyaning boshqaruvchi roli haqidagi holatni birinchi bo'lib ilgari surgan; ta'lim rivojlanishdan oldin boradi va uni o'zining ketidan olib boradi. O'qitmasdan turib to'liq rivojlanish bo'lishi mumkin emas. O'quv materialining mazmunini yosh davrlarining bosqichlarida o'zlashtirishga bo'lgan talablarni hisobga olgan holda aniqlash zarur. O'qitish rivojlanishning ichki qonunlarini inkor etmaydi. O'qitish imkoniyalarining kengiligini, ammo cheksiz emasligini unutmazlik kerak. Inson psixikasi rivojlangan sari yaxlitlik, birlik, barqarorlik ortib boradi, uning integrasiyasi sodir bo'ladi. Bu hol shaxsning u yoki bu hislatlarining paydo bo'lishiga olib keladi.

O'quv tarbiyaviy ishda yosh xususiyatga xos bo'lgan ruhiy xususiyatlarni hisobga olish o'qituvchiga o'qitishning har bir bosqichida o'quvchilarga ta'sir etadigan shunday pedagogik metod hamda vositadan foydalanishga imkon beradiki, bular shu yoshdagi o'quvchilarning imkoniyatlari va talablariga mos kelishi kerak. Bunda, albatta, bolalarning individual farqlarini, aqliy rivojlanish darajasini, psixologik faoliyatlarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish zarur. Aqliy rivojlanish bola ongida nima aks etishi va aks etish qanday sodir bo'lishi bilan karakterlanadi.

Aqliy rivojlanishning mezoni sifatida psixologlar uning karakteristikasini ilgari surdilar:


- 1) Materialni o'zlashtirish tezligi yoki qabul etish tempi;
- 2) Mulohazalar soni bilan aniqlanadigan fikrlashning siqiligi, bular asosida o'quvchilar o'zlariga yangi qonuniyatlarni ajratib oladilar;
- 3) Analitik-sintetik faoliyatning darajasi;
- 4) bir ob'yektni o'rganish asosida boshqa ob'yektda shakllantirilgan aqliy faoliyatni ko'chirish usullari (masalan, mashtabli chizg'ich va menzurkaning shkala bo'lim qiymatlarini dinamometr, ampermetr va voltmeter shkala bo'lim qiymatlari asosida aniqlash usuli);
- 5) Olingan bilimlarni mustaqil sistemalashtirish va umumlashtirishni bilish. [2].

Har qanday predmetni o'qitishni shunday olib borish kerakki, bunda u o'quvchilarning aqliy rivojlanishiga maksimal yordam bersin. Aqliy rivojlanishning belgilarini bilish o'qituvchiga, bir tomondan, o'qitishning bunday metod va usullarni tanlab amalga oshirishga imkon beradi, ular ko'rsatilgan usullarga mos keluvchi fikrlash sifatlarini o'quvchilarda hosil qilishga maksimal ta'sir etadi. Ikkinchi tomondan o'quvchilar aqliy qobiliyatlarining rivojlanishi bo'yicha o'z faoliyatlarining natijalarini tekshirish va baholashga imkon beradi.

Tekshirishlaridan, o'qitish jarayonida o'quvchilarga faqat bilimlar sistemasini berib qo'ya qolmay, shu bilan birga bilish qobiliyati sistemasini, ya'ni aqliy faoliyat usullari sistemasini ham berish zarur, degan xulosa chiqadi.

Turli ko'rinishdagi o'quv materiallarining o'quvchilar qabul qilishini tashkil etishda, o'quvchilarda mos hayoli operatsiyalarni (tahlil qilish, taqqoslash, qiyos qilish, umumiy, xususiy va maxsus xususiyatni aniqlash, abstraktlash, umumlashtirish, sintez qilish va boshqalar) shakllantirish bo'yicha o'qituvchining maqsadga muvofiq yo'naltirilgan faoliyatida hisobga olinishi kerak.

Predmetlarni o'rganishda olingan bilimlarni sistemalashtirish va umumlashtirish, turli adabiy manbalar bilan mustaqil ishlash, bitta u yoki bu masala yuzasidan turli qo'llanmalarda bayon etilgan fikrlarni solishtirish va o'z fikrlarni aytish mahoratlarini o'quvchilarda hosil qilish ham muhim ahamiyatga ega. Shuningdek bilish jarayoning rivojlanishida undagi iqtidor ko'nikmalari ilmiy-ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga zamin yaratadi.



Aynan mazkur yosh davrda ilmiy-ijodiy qobiliyatning rivojlanishi muhim sanalib, bu borada qator psixologlar tamonidan tadqiqot ishlari olib borilgan. Shu sababli o'quvchi aqliy rivojlanishi muhim dolzarb masala hisoblanadi. Ta'lim o'quvchini bilimlar bilan qurollantirish uning aqliy jihatdan kamol topishini taminlashi lozim. Bilim egallash aqliy rivojlanish bilan jambarchas bog'liq bo'lib, ilmiy-ijodiy qobiliyatning rivojlanishi Bilimlarni egallash bilan amalga oshadi [3].

O'zlashtirilgan ma'lumotlar asosida talabning ilmiy-ijodiy qobiliyatlarini maqsadli yo'naltirish har bir pedagogdan katta tajribani, ilmiy salohiyatni qolaversa ijodkorlikni talab qiladi. Demak, biz talabning ilmiy-ijodiy fikrlash faoliyatini o'stirish yo'lida har bir darsni shuncaki dars o'tayapman deb emas, balki bizning kelajagimiz, millatimiz ravnaqi, jamiyatimizning davomchisi bo'lgan yosh avlodni yuksak salohiyatli yetuk mutaxassis tayyorlaymiz deb, samarali dars bermog'imiz lozim.

Ma'lumki, ta'lim metodlarining muayyan pedagogik sharoitga mos uyg'unligini ta'minlash ta'lim sifatini ko'tarish omillaridan biri hisoblanadi. U talaba egallashi zarur bo'lgan bilimlarning puxta o'zlashtirilishi, dars jarayonida o'qituvchi-o'quvchi hamkorligi hamda maqsadning yagonaligi o'quvchilarda bilim darajasining yetarli bo'lishiga olib keladi. Shunday ekan, o'qituvchi o'quvchilarga berayotgan bilim darajasini yetarli ekanligi, o'quvchining o'qituvchi o'tayotgan mavzularni puxta egallashi va boshqa shart-sharoitlar dars samaradorligini oshirishga imkoniyat yaratadi. Dars jarayonlarini tashkil etish va yo'naltirishda o'qituvchi o'quvchining mustaqil fikrlash salohiyatini darajalay olishi lozim bo'ladi. Bunda o'qituvchi uchun zarur bo'lgan o'quvchilarning mustaqil fikrlash salohiyati dars jarayonida ko'zga tashlanib boradi.

O'quvchining ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda mashg'ulotning qanday tashkil etilganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda o'qituvchi qobiliyati, mahorati uning darsni yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishi, o'quvchi tomonidan bilimlarni puxta o'zlashtirishda berilayotgan dars materiallariga ijodiy tarzda yondoshishga o'rgatish yaxshi natija beradi. Shundagina o'quvchining fikrlash qobiliyatini o'stirish, fikrlash chegarasini kengaytirishga turtki bo'ladi. Maktab oldida muhim va murakkab vazifa – "Hozirgi zamon jamiyat va fan-texnika taraqqiyotining talablariga javob beradigan bolalar va yoshlarning umumiy o'rta ta'limini amalga oshirish, o'quvchilarni fan asoslarining chuqur va mustaqil bilimlar bilan qurollantirish, ularda o'z bilim hamda mahoratlarini uzluksiz takomillashtirishga intilish bilan ularni mustaqil to'ldirish va amalda qo'llashni tarbiyalash;... o'quvchilarni aktiv mehnat va jamoat faoliyatiga, ongli kasb tanlashga tayyorlash" turadi. Bu vazifani hal etish uchun o'qish motivlarini ongli o'zlashtirish, o'quvchilarning o'qishga ijobiy munosabati, predmetga qiziqishi muhim rol o'ynaydi [4].

O'qish motivlarini tushinishni va predmetga qiziqishni shakllantirish uchun o'qituvchi ularning shakllanish sharoitlarini, u yoki bu motivlarni aniqlaydigan faktorlarni bilishi zarur.

Motiv deganda psixologiyada o'quvchilarni hatti-harakatlarga undaydigan sabablar tushiniladi. Motivlarning shakllanishiga talablar va instinktlar, mayllar hamda emosiyalar, yo'l tutishlar, g'oyalar va qiziqishlar ta'sir etadi.

O'qish motivlari turli ko'rinishlarda bo'lishi mumkin: ma'lumot olishda ota-onalar talabining bajarilishi, "boshqalardan qolishmaslikka" intilish, o'rta maktabni tugatganligi haqida guvohnoma olish, maktabni tugatgandan keyin institutga kirishga intilish va boshqalar. Eng yuqori motivlar jamiyatga foydali bo'lish uchun bilimlar olish va nihoyat, "ko'p bilish" motivi, ya'ni asosida bilishga qiziqish yotgan motiv.

O'qituvchining vazifasi o'z o'quvchilarida oliy motivlarni – sosial va ma'naviy shakllantirish ya'ni "jamiyatga foydali bo'lish" uchun bilimlarni olish zarurligi ishonchini



tarbiyalash, predmetni o'rganishda bilishga qiziqish hissini ularda tarbiyalashda iborat bo'ladi. O'qiyotgan ko'pchilik o'quvchilarda bilishga qiziqishlar uyg'otila olingan va rivojlantirilgan bo'lsagina, o'qitish jarayoni muvaffaqiyatliroq o'tadi. Bu holda bilishga qiziqish – ko'p bilishga intilish – o'quvchining yetaklovchi motivlaridan biriga aylanadi.

Qiziqish o'qish, yangilikni bilish uchun eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Uning ta'sirida intellektual aktivlik o'sadi, xotira takomillashadi, tasavvur etish, qabul etish ishlari kuchayadi, diqqat, fikrni to'plash o'sadi. Uning ta'sirida yana ma'naviy irodaviy sifatlarni tarbiyalashda shaxsning umuman rivojlanishida ifodalanadi.

Bilishga qiziqishni tarbiyalash muammosi hozirgi vaqtda umumiy o'rta ta'limga o'tish munosabati bilan juda muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Bilishga qiziqishning xarakterli xususiyati shundan iboratki, u intellektual xarakterga ega: qiziqtirayotgan subyekt predmetga yangi tomonlarni aniqlashga, kuzatilayotgan hodisalarni mohiyatini ochishga, sabab-oqibat bog'lanishlarini va ular orasidagi bog'lanishni o'rnatishga.

Bilishga qiziqish o'quvchining o'qishga butunlay va ayrim predmetlarni o'rganishga ijobiy munosabatini aniqlaydi. Agar o'qituvchi o'z predmetiga qiziqish uyg'otolsa, u holda o'quvchilarning mustaqil ijodiy ishlari uchun imkoniyat yaratiladi; ular bilimlarga, uni egallash yo'lida turli qiynchiliklarni yengishga intiladi. Agar qiziqish "jalb qilinmagan" bo'lsa, miya orqali axborot o'quvchilarning butunlay befarqligida, ijobiy emosiyalar uyg'otmasdan izsiz o'tadi.

O'quvchilarning bilishga bo'lgan qiziqishining paydo bo'lishi va rivojlanishini ularning qo'shimcha adabiyotlar ilmiy ommabob broshyuralar, jurnallar, oliy o'quv yurtlariga kiruvchilar uchun o'quv qo'llanmalari va boshqalar bilan mustaqil ishlashlarini tashkil etishga yordam beradi. O'qituvchi o'quvchilar bilan birgalikda bajaradigan bu ishlarni maktab fizika kursining har bir bo'limi bo'yicha tematik planlarni tuzishda planlashtirishi kerak. O'quvchilar faoliyatining natijalari u yoki bu shaklda sinfda tekshirilishi, muhokama qilinishi va baholanishi kerak.

O'quvchilarning predmetni bilishga qiziqishlarini qo'llash va rivojlantirish uchun o'quv mashg'ulotlari sistemasida o'quvchilarni doimiy ijodiy aqliy ishga, faat yangi bilimlarni olishdagina emas, shu bilan birga bilishga oid mahoratlarini takomillashtirishda, ilmiy tekshirish metodlarini: kuzatishni, eksperimentni, hayoliy modellashtirish metodini, gipotezalar va boshqalarni egallashda darsdan darsga og'ishmay oldinga siljishga undaydigan sharoitni yaratish zarur. Shu munosabat bilan o'quvchilarda umumlashgan bilish mahoratlarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Maktab oldida muhim va murakkab vazifa – "Hozirgi zamon jamiyat va fan-texnika taraqqiyotining talablariga javob beradigan bolalar va yoshlarning umumiy o'rta ta'limini amalga oshirish, o'quvchilarni fan asoslarining chuqur va mustaqil bilimlar bilan qurollantirish, ularda o'z bilim hamda mahoratlarini uzluksiz takomillashtirishga intilish bilan ularni mustaqil to'ldirish va amalda qo'llashni tarbiyalash;... o'quvchilarni aktiv mehnat va jamoat faoliyatiga, ongli kasb tanlashga tayyorlash" turadi [5]. Bu vazifani hal etish uchun o'qish motivlarini ongli o'zlashtirish, o'quvchilarning o'qishga ijobiy munosabati, predmetga qiziqishi muhim rol o'ynaydi.

O'quvchilarning predmetga bo'lgan munosabatini aniqlaydigan muhim faktor o'qituvchining shaxsiyati hisoblanadi. Ko'pchilik o'quvchilarning predmetga bo'lgan munosabati uning qanchalik qiziqarli o'qitilishiga bog'liq. Agar maktabda o'z predmetini yaxshi ko'radigan o'qituvchi ishlasa, bu predmet ko'pchilik maktab o'quvchilarining diqqatini o'ziga jalb etadi. O'qituvchining shaxsiy sifatlari eng aniq namoyon bo'ladigan uning darsdagi faoliyati va o'qituvchi tashkil etgan o'quvchilarning bilim olish faoliyatlari maktab o'quvchilarida predmetga qiziqish paydo bo'lishining asosiy manbalari hisoblanadi.



O'quvchilarning predmetga bo'lgan munosabatini aniqlaydigan muhim faktor o'qituvchining shaxsiyati hisoblanadi. Ko'pchilik o'quvchilarning predmetga bo'lgan munosabati uning qanchalik qiziqarli o'qitilishiga bog'liq. Agar maktabda o'z predmetini yaxshi ko'radigan o'qituvchi ishlasa, bu predmet ko'pchilik maktab o'quvchilarining diqqatini o'ziga jalb etadi. O'qituvchining shaxsiy sifatleri eng aniq namoyon bo'ladigan uning darsdagi faoliyati va o'qituvchi tashkil etgan o'quvchilarning bilim olish faoliyatlari maktab o'quvchilarida predmetga qiziqish paydo bo'lishining asosiy manbalari hisoblanadi.

O'quvchilar uchun o'qituvchining tutgan o'rni ham, uning ishonchi ham muhim ahamiyatga ega. Keyingisi o'qituvchining o'zini tutishda, darsda tarixiy tajribani, ayrim omillarning faoliyatini, hozirgi voqealarni, o'quvchilarning o'z vazifalariga nisbatan xulq va muammolarini baholashda ifodalanadi.

O'quvchilar uchun o'qituvchining tutgan o'rni ham, uning ishonchi ham muhim ahamiyatga ega. Keyingisi o'qituvchining o'zini tutishda, darsda tarixiy tajribani, ayrim omillarning faoliyatini, hozirgi voqealarni, o'quvchilarning o'z vazifalariga nisbatan xulq va muammolarini baholashda ifodalanadi.

### FOYDANILGAN ADABIYOTLAR

1. Крутецкий В.А. Психология обучения и воспитания школьника. – Москва, Просвящение, 1976.
2. Абдувахобова Д. Э. Познавательные мотивы подростка в процессе обучения. Молодой учёный. 2015-7.-614
3. Абдувахобова Д., Эргашев У. Формирование умений и навыков в учебной работе. Молодой учёный.762-769.2014.
4. Абдувахобова Д. Особенности периода взросления подростка. Молодой ученый 2016 - 999-1002 стр.
5. Анорбойзода Феруза Субхонкул қизи. She'riyat-yoshlar tarbiyasida ishonchli qurol. Хоразм маъмун академияси ахборотномаси. 2022.

